O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O’quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro’yxatga olindi
№ 201400010
2014 yil 20 iyun

Institut kengashining
№1 sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN
(2014 yil 23 avgust )

# IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

fanining

## ISHCHI O‘QUV DASTURI

Oliy ta`limning

| | |
|---|---|
| Bilim sohalari: | 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq. |
| Ta`lim sohalari: | 230 000 – Iqtisod. |
| Ta`lim yo’nalishlari: | 5230200-Menejment (tarmoqlar va sohalar bo’yicha). |

Toshkent – 2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

| | | |
|---|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | B.Xakimov | – TMI, "Moliyaviy tahlil" kafedrasi mudiri, i.f.n., prof. |
| | I.Choriyev | – TMI, "Moliyaviy tahlil" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| | M.Amirdinova | - TMI, "Moliyaviy tahlil" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| **Taqrizchilar:** | A.Ibroximov | – TMI, "Moliyaviy tahlil" kafedrasi professori, i.f.n. |
| | M.Raximov | –TMI, "Moliyaviy tahlil" kafedrasi dotsenti, i.f.n. |

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 20 maydagi 20-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** **B.Xakimov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Hisob va audit fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 12 iyundagi 11-sonli qarori).

**Fakultet dekani** **J.Kudaybergenov**

**Kelishildi:**
**O'quv ishlari bo'yicha prorektor** **A.Karimov**

# KIRISH

## 1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

“Iqtisodiy tahlil va audit” fanining asosiy maqsadi – iqtisodiy qarorlarini qabul qilish uchun xo’jalik sub`ektlarining moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatini, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini, moliyaviy holatini hamda ularning o’zgarishlarini, o’zgarishlarga ta`sir qilgan omillarni aniqlash, hisob-kitob qilish, baholash yo’llarini hamda auditning mohiyati, mazmuni, tashkiliy-huquqiy asoslari, o’tkazish tartibi, audit hisoboti va xulosasini tuzishni o’rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda xo’jalik sub`ektlarining moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatiga, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga, iqtisodiy holatiga ob`ektiv baho berish, bu borada yo’l qo’yilgan kamchiliklarni bartaraf etish va foydalanilmagan imkoniyatlarni ko’rsatib berish, audit o’tkazish tartibini hamda auditorlik hisoboti va xulosasini tuzishni hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bo’yicha ko’nikma va malakani shakllantirishdan iborat.

Har bir mavzu yakunida ta`lim texnologiyalari keltirilgan va ularni qo’llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o’quv-uslubiy majmua(O’UM)da bayon etilgan.

## 1.2. Fanni o’zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi:

“Iqtisodiy tahlil va audit” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- Iqtisodiyot sub’ektlarini to’g’ri boshqarishda tahlilning rolini, iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari (prinsiplari)ni, iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalarini, fanlar tarkibida iqtisodiy tahlilning o’rnini, iqtisodiy tahlil qilishning usullarini, xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilishni, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarini bilishi kerak;
- Tahlil jarayonida kerak bo’ladigan manbalar hajmini aniqlash, to’plash, ularni to’g’riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tahlil natijasiga xulosa va yakun yasash, auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, auditorlik tanlovi, auditorlik dalillarini to’plash, auditorlik xulosa va hisobotlarini tayyorlash ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak;
- Talaba ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorlik ko’rsatkichlari o’zgarishiga ta’sir qilivchi omillarni tahlil qilish va yakuniga baho berish, korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko’rsatkichlarni aniqlash; ko’rsatkichlarni o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va foydalanilmagan rezervlarni aniqlashda qo’llaniladigan usullarni bilish; korxona faoliyatida ro’y bergan iqtisodiy vaziyatni baholash malakalariga ega bo’lishi kerak.

## 1.3. Fanning o'quv rejasidagi fanlar bilan bog'liqligi

«Iqtisodiy tahlil va audit» fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, tegishli ta`lim yo'nalishlarida 5 semestra o'qitiladi. "Iqtisodiy tahlil va audit" fanini o'zlashtirishda talabalar matematik va tabiiy (oliy matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, matematik programmalashtirish), umumkasbiy (menejment va marketing asoslari, iqtisodiy geografiya, iqtisodiyot nazariyasi, moliyaviy va boshqaruv hisobi) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

## 1.4. Fanni o'qitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

«Iqtisodiy tahlil va audit» fanining ***ma`ruza mashg'ulotlarida*** ma`lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

*Paradokslar usuli*:

bu avvaldan bilganlari bilan yangi bilimlar o'rtasidagi ko'prikdir. Shu tarzda yangi bilimning avvaldan ma'lum bilim bilan o'zaro bog'lanishi va bu jarayonni his qilishga tinglovchini majbur qilinishi uni xotirada mustahkamlanib qolishiga yordam beradi.

*insert jadvali*:

- mustaqil o'qish, ma`ruza tinglash jarayonida olinadigan ma`lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.
- oldindan olingan ma`lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

*Klaster (Klaster - tutam, bog'lash):*

Ma`lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

*"Charxpalak" texnologiyasi:*

Ushbu texnologiya talabalarni o'tilgan mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarning egallagan bilimlarini bag'olashga qaratilgan.

*Toifali jadval:*

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma`lumotlarni birlashtirishni ta`minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

*Kontseptual jadval:*

O'rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

*BLOT-tahlil jadvali:*

Korxona resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo'yicha ham

amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada kilish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

*Loyihalash metodi:*

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma`lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

*Muammo texnologiyasi:*

Talabalarga fanning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba`zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

«Iqtisodiy tahlil va audit» fanining **amaliyot mashg'ulotlarida** muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

*"Bumerang"texnoloiyasi*:

ushbu texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar blan ishlash, o'rganilgan materiallarni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan. Texnologiyaning maqsadi - o'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash, o'quv jarayoni mobaynida har bir talaba tomonidan o'z ballarini egallashga imkon yaratish.

*Aqliy hujum:*

Bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

*Bahs:*

O'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

*Pinbord texnikasi:*

Muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

*Del fi texnikasi:*

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

***6-6** texnikasi:*

Qo'yilgan muammoni hal etish bo'yicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi harakatlar algoritmiga muvofiq ma`lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

*Keys stadi.:*

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi.

Shuningdek «Iqtisodiy tahlil va audit» fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (Finanalitik, Audit-Ekspert,1S: Prof. Buxgalteriya, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), slaydlardan, multimedia ta`lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

**5230200-Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida "Iqtisodiy tahlil va audit" fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti**

| T/r | Fan mavzularining nomi | Jami soat-lar | Shu jumladan | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulot | Mustaqil ta'lim |
| **A** | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** |
| | **Bahorgi semestr** | | | | |
| **1.** | Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi | 8 | 2 | 2 | 4 |
| **2.** | Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni | 8 | 2 | 2 | 4 |
| **3.** | Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar | 20 | 6 | 6 | 8 |
| **4.** | Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish | 16 | 4 | 4 | 8 |
| **5.** | Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari | 20 | 6 | 6 | 8 |
| **6.** | Korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish usullari | 20 | 6 | 6 | 8 |
| | **II blok. Audit asoslari** | | | | |
| **7.** | Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari | 8 | 2 | 2 | 4 |
| **8.** | O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari | 9 | 2 | 2 | 5 |
| **9.** | Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari | 8 | 2 | 2 | 4 |
| **10.** | Auditorlik tekshirishni rejalashtirish | 12 | 4 | 4 | 4 |
| **11.** | Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi | 8 | 2 | 2 | 4 |
| | 1-oraliq nazorat | | | | |
| | 2-oraliq nazorat | | | | |
| | Yakuniy nazorat | | | | |
| | **Jami** | **137** | **38** | **38** | **61** |
| | **Hammasi** | **137** | **38** | **38** | **61** |

# 2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI

## 2.1. MA`RUZA MASHG'ULOTLARI

## 2. Ma'ruza darslarining taqsimlanishi

### 1-mavzu. Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi

Iqtisodiy tahlilni fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy tahlilning ishlab chiqarishni jadallashtirish hamda xo'jalik hisobini mustahkamlash, iqtisodiy tejamkorlikni amalga oshirishda hamda korxonala, konsernlar, birlashmalar va vazirliklarni ish sifatini yaxshilashdagi ahamiyati. Iqtisodiy tahlil qilish – dialektikaning muhim xususiyatidir. Hodisa va jarayonlarni har tomonlama o'zaro bog'liq ravishda o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash tahlilning asosiy belgisidir. Tahlil (analiz) va umumiylik (sintez) iqtisodiy hodisa va jarayonlarni batafsil o'rganishning asosiy yo'li ekanligi. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari: haqqoniylik va to'g'rilik – tahlilning turli iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishdagi asosiy maqsadidir. Ilmiy yondoshish, kompleks va sistemali o'rganishlik, iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari ekanligi.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A4, A6, A9, A11, A15, A16, Q19, Q27]

### 2-mavzu. Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni

Korxonalar faoliyatini atroflicha va keng o'rganish iqtisodiy tahlilning asosiy mohiyatidir. Hodisa va jarayonlarni o'rganishdan maqsad, natijaviy ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni, sabab-oqibatlarini va ularning ta'sirini aniqlash.

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy va qo'shimcha omillarni o'rganish va aniqlash. Korxonalar xo'jalik faoliyatini ko'rsatkichlari: texnika, texnologiya, ishlib chiqarishni tashkil etish, mehnatni tashkil etish, iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish jarayonlarini ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari, tabiiy sharoitlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va hokazolar. Iqtisodiy tahlil predmeti. Korxonalar, birlashmalar, konsernlar va vazirliklar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish vazifalari. Mahsulot ishlab chiqarish va ularni xaridorlarga etkazib berish shartnomasini bajarishga korxonalarning imkoniyati etarliligi, mehnat resurslari, moddiy resurslar va asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanganligini o'rganish, bozor iqtisodiyoti raqobatlariga chidamli moliyaviy barqarorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning muhim vazifasidir.

Iqtisodiy tahlilning yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, korxonaning kelgusida yanada samarali ishlashi uchun takliflar berish vazifalariga tushuncha. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining iqtisodiy fanlar majmuasida tutgan o'rni. Uning iqtisodiy nazariya, tarmoq iqtisodiyoti, moliya va kredit, buxgalteriya hisobi, statistika, ishlab chiqarishni va boshqarishni tashkil etish, matematuka, kibernetika, sosiologiya, huquq, texnologiya, audit, hisoblash texnikasi va boshqa fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqligi. Rivojlangan davlatlardagi iqtisodiy tahlil tajribalaridan foydalanishning hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi zarurligi.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A4, A9, A11, Q19, Q27, Q28, Q31, Q32]

## 3-mavzu. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo’llaniladigan an’anaviy usullar

Iqtisodiy tahlil metodi ta’rifi va uning xususiyatlariga atroflicha sistemali yondoshish, iqtisodiy, social va ekologik muammolarni birgalikda qo’shib o’rganishlik tahlil metodining asosiy tamoyillari. Dialektik yondashish, iqtisodiy ko’rsatkichlar tizimidan foydalanib, ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va har birini ta’sir doirasini ko’rsatish – iqtisodiy tahlil uslubiyatini muhim xususiyatidir. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari va ularni tavsiflash. Taqqoslash usuli va uning qo’llanishi. Taqqoslama (ichki xo’jalik, xo’jaliklararo) tahlil korxonalardagi mavjud ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash usuli. Xo’jalik omillarini turli xususiyatlariga qarab guruhlash usuli. Rezervlarni tavsiflash, ichki xo’jalik rezervlarini aniqlashda “tor joy” va etakchi bo’g’inlarini aniqlash. O’rtacha va nisbiy korsatkichlarni aniqlash usuli va ularning mohiyati. Ko’rsatkichlarni guruhlash va uning ahamiyati. Balansli bog’lanish usulini tahlilda qo’llanishi. Zanjirli almashtirish usuli va uni mohiyati. Korxonalarning xo’jalik faoliyatini tahlil qilishda dinamik qatorlarni qo’llash usuli. Bartaraf etish usulini iqtisodiy tahlilda qo’llash tartibi. Ko’rsatkichlarni o’rganishda belgilarga ajratish va tartiblashtitish usullarini qo’llashning xususiyatlarini.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[Q19, Q20, Q27, Q28, Q31, Q33, Q35]

## 4-mavzu. Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilni boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlilga ajratishning zarurligi. Boshqaruv tahlili korxonalarning boshqarishning muhim vositasi ekanligi. Tijorat siri va boshqaruv tahlili. Boshqaruv tahlilining mazmuni, vazifalari va manbalari. Moliyaviy tahlil va uning korxonalar faoliyatiga baho berishdagi ahamiyati, mazmuni, tashkil qilinishi, vazifalari va manbalari. Xo’jalik faoliyatining joriy tahlili. Joriy tahlilning mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Korxonalar va birlashmalarning xo’jalik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarni joriy tahlil qilishning usullari. Tezkor (operativ) tahlil. Tezkor tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Asosiy texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarni tezkor tahlil qilishning usullari. Istiqbolli tahlil. Istiqbolli tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Istiqbolli rejalarini tuzish chog’ida istiqbolli tahlilni tashkil qilish xususiyatlari va usullari. Xo’jaliklararo qiyosiy tahlil. Qiyosiy tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Xo’jaliklararo qiyosiy tahlilning turlari. Korxonalar, birlashmalar ko’rsatkichlarini taqqoslashning asosiy shartlari. Qiyosiy tahlilning o’ziga xos xususiyatlari. Texnik-iqtisodiy, ijtimoiy–iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy tahlil turlariga tushuncha. Texnik-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy tahlilning o’ziga xos xususiyatlari va ularning kompleks iqtisodiy tahlil tizimida tutgan o’rni. Funksional qiymat tahlili. Funksional qiymat tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va

axborot manbalari. Funksional qiymat tahlilning tamoyillari, o’ziga xos xususiyatlari va qo’llanishdagi asosiy shartlari. Funksional qiymat tahlilning tashkil etilishi. Funksional qiymat tahlilning korxonalarni loyihalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va qayta uskunalash bosqichlarida o’tkazish xususiyatlari.

Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma’lumotlar tizimi. Iqtisodiy ma’lumotlarning turlari va ularni tashkil qilish tamoyillari: haqqoniylik, umumiy bog’liqlik, tezkorlik, tejamkorlik va keraklilik. Hisob, hisobot va boshqa ma’lumotlar tizimini qo’yilgan talabga javob berishi. Iqtisodiy tahlilda ma’lumotlar manbaini hisob va hisobdan tashqari ma’lumotlarga bo’linishi. Hisob, hisobot va reja ma’lumotlarini yig’ish va bir tizimga qo’yish. Tahliliy jadvallar tuzish tartiblari. Korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish: moliyaviy tahlil va boshqaruv tahlili. Korxonaning moliyaviy natijalari va holati to’g’risida axborotdan foydalanuvchilarning turli toifalari: menejerlar, kreditorlar, investorlar, mahsulot etkazib beruvchilar va boshqalarning ko’zlagan asosiy maqsadi. Boshqaruv tahlilini o’tkazuvchilar: korxona rahbariyati, hisobchilar, iqtisodchilar, muhandislar, mutaxassislar va boshqalarning bajaradigan funksiyalari. Korxonalarda iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilishni rejalashtirish: ko’zlangan maqsadi va vazifalari, mazmuni, bosqichlari bo’yicha uyushtirish. Funksiyasiga qarab (korxonalar, birlashmalar, moliya, soliq, statistika, auditorlik firmalari va boshqalar), maqsadga qarab (to’liq va tematik), tahlil qilanayotgan bo’g’inlarga qarab (korxona, sex, brigada, bo’g’in, ish uchastkalari va boshqalar), o’tkazish vaqtiga qarab (oldindan,joriy, navbatdagi va boshqalar).

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari. Korxona xo’jalik farliyatini tahlil qilishda korxonaning texnikaviy va iqtisodiy xizmat ko’rsatish bo’limlari bo’yicha vazifalarini o’zaro taqsimlanishi. Tahlil uchun zarur ma’lumotlar to’plash; kerakli ma’lumotlarni hajmini aniqlash, to’plash, ularni to’g’ri va to’liqligini tekshirish, qayta ishlash, tahlilga moslashtirish. Ma’lumotlarni tahlil qilish. Ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash. Iqtisodiy tahlilning natijalarini rasmiylashtirish. Tahlil natijasiga xulosa va yakun tuzish, aniqlangan rezervlardan foydalanish bo’yicha takliflar keltirish.Iqtisodiy tahlil natijalari bo’yicha qaror qabul qilinishi va uning bajarilishini nazorat qilish.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A9, A15, A16, Q17, Q19, Q21, Q27, Q32, Q35]

## 5-mavzu. Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko’rsatkichlarni tahlil qilish usullari

Mahsulotni (ish, xizmat) ishlab chiqarish va uni sotishni ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari. Korxonalarning xo’jalik faoliyatini ifodalovchi miqdoriy ko’rsatkichlar: yalpi, tovar, sotilgan va sof mahsulot to’g’risida tushuncha hamda ularning mohiyati. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifati, raqobatbardoshligi, assortimenti (xilma-xilligi) va mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish ko’rsatkichlarining mohiyati hamda ularni sotish hajmiga ta’siri. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta’sir qiluvchi: mehnat, mehnat vositalari va mehnat buyumlari omillarini turkumlash tamoyillari. Mehnat omillaridan samarali foydalanish ko’rsatkichlari. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha va uning

mohiyati. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini aniqlash tartibi. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar: fond samarasi, fond sig'imi, asbob-uskunalardan foydalanish koeffisienti to'g'risida tushuncha va ularning mohiyati. Mehnat buyumlari omillaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari (material samarasi, material sig'imi) haqida tushuncha va ularning mohiyati. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha va uni pasaytirishni ahamiyati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash kompleks iqtisodiy tahlil tizimini asosiy shartidir. Ishlab chiqarish samarodorligini oshirish rezervlarini turkumlarga ajratish.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A9, A15, A16, Q17, Q19, Q21, Q27, Q32, Q35]

## 6-mavzu. Korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish usullari

Korxonalar moliyaviy holatini baholashda moliyaviy koeffisentlar tizimining ahamiyati. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uslubiyati. Koeffisientlar: mustaqillik, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy qaramlik. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi qo'shimcha koeffisientlar. Balans va aktivlar likvidligi to'g'risida tushuncha. Balans likvidligini tahlil qilishning ahamiyati. Likvidlilik darajasi bo'yicha balans aktivini guruhlashtirish. To'lanish muddati darajasi bo'yicha balans passivi moddalarini guruhlashtirish. Korxona to'lov qobiliyatiga umumiy baho berish. To'lovga qobillikni asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullari. Balansning ishchanlik faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni tahlili. Debitorlik va kreditorlik karzlari xolatining tahlili. Muddatli o'tgan va muddati etib kelingan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatining tahlili. Korxona aylanma mablag'larni aylanishning tahlili. Aylanma mablag'larni aylanish kunini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) korxonalarning ish faoliyatidagi eng asosiy ko'rsatkichdir. Moliyaviy natijalar tahlilning asosiy vazifalari.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum. Mahsulotlarni ishlab chikarish tannarxi. Korxonalar asosiy faoliyatidan olingan foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Davr xarajatlari. Asosiy faoliyatning boshka jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlar. Korxonalar umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar va xarajatlar. Soliq to'lagunga qadar foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar). Favqulodda foyda (zarar). Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. To'langan soliqlar va boshqa soliq to'lovlari. Sof foyda hajmini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash. Rentabellik ko'rsatkichi korxonalar xujalik yuritishning samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichdir. Rentabellik ko'rsatkichlari tizimi, xo'jalik sub'ektlarini faoliyatini baholashda ularni xilma-xilligi va hisoblash usullari. Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish usullari. Balansning jami aktivlarining rentabelligi va

uning o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili. Korxona xususiy kapitalining rentabelligi va uning o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili. Sotish bo’yicha rentabellik.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A4, A9, A15, A16, Q19, Q20, Q29, Q35]

### 7-mavzu. Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari

Auditning paydo bo’lishi va rivojlanishi. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. O’zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o’rni. Audit maqsadi va vazifalari. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari. Tasdiqlovchi audit. Maqsadli sistemali audit. Tavakkalchilikka asoslangan audit. Audit va buxgalteriya hisobi o’rtasidagi farqlar. Audit va taftish, ularning o’xshashlik va farqli tomonlari.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A3, A7, A8, A10, Q22, Q24, Q25, Q35]

### 8-mavzu: O’zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari

O’zbekistonda auditorlik faoliyatini me’yoriy tartibga solish tizimi, uning elementlari. O’zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonuni va uning ahamiyati. «Auditorlik tashkilotlari to’g’risida» Nizom. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to’g’risida»gi Qarorlari va ularning mohiyati. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. Auditorlik tashkilotlarining ichki standartlari. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A3, A7, A8, A10, Q22, Q24, Q25, Q35]

### 9-mavzu: Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari

Majburiy auditorlik tekshiruvi. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko’ra audit o’tkazish xususiyatlari. Operasion audit. Muvofiqlik auditi. Moliyaviy hisobot auditi. Ichki va tashqi audit. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari. Xo’jalik sub’ektlarida audit o’tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari. Jiddiylik tushunchasi, jiddiylik darajasi, uni aniqlash va audit o’tkazishda qo’llash. Jiddiylik tushunchasi va uning auditdagi ahamiyati. Jiddiylik darajasi, uni aniqlashda qo’llaniladigan asosiy ko’rsatkichlar tizimini shakllantirish tartibi. Jiddiylik darajasini auditda qo’llash tartibi. Auditorlik riski tushunchasi, auditorlik risklarning maqbul to’plami, uning elementlari va ularni baholash. Auditorlik riski tushunchasi, auditorlik risklarning maqbul to’plami va unga ta’sir ko’rsatadigan shart-sharoitlar. Auditorlik risklar maqbul to’plamining elementlari va ularni baholash. Jiddiylik darajasi va auditorlik riski tushunchalarining

o’zaro bog’liqligi.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A7, A8, A10, A11, A13, Q18, Q22, Q23, Q35]

### 10-mavzu: Auditorlik tekshirishni rejalashtirish

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Auditni rejalashtirishning bosqichlari. Auditni dastlabki rejalashtirish. Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish. Audit dasturini tayyorlash va tuzish. Auditni rejalashtirishning asosiy tamoyillari. Uyg’unlik, uzluksizlik va maqbullik tamoyillari. Korxonani auditorlik tekshiruvidan o’tkazish ishchi dasturi va auditorlik xizmati ko’rsatish haqida shartnoma hamda boshqa zarur hujjatlarni tuzish. Auditorlik dalillar tushunchasi. Auditorlik dalillarning tayinlanishi va oldiga qo’yiladigan talablar. Auditorlik dalillarning turlari. Auditorlik dalillarning manbalari. Auditorlik amallari va auditorlik dalillarni to’plash. Auditorlik dalillarni olish usullari. Analitik proseduralar (tahliliy amallar). Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari. Auditorlik tanlash tushunchasi. Auditorlik tanlash usullari. Muvofiq kelishni tanlab tekshirish. Mohiyatan tanlab tekshirish. Tanlash ko’lami. Kuzatish birligi. Tanlash birligi. Tanlash uslublari. Saylab olish hajmi. Salmoqli tanlash. Tanlangan ma’lumotlarni tekshiriladigan to’plamga tadbiq qilish. Tasodifiy tanlash. Sistematik tanlash. Uyg’unlashgan tanlash. Tanlash uslubini shakllantirish, tanlash xatarlari va natijalarni baholash.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A7, A8, A10, A11, A13, Q18, Q22, Q23, Q35]

### 11-mavzu: Auditorlik tekshiruvinining yakuniy bosqichi

Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash. Auditor tekshiruvining ishchi fayllari. Auditorlik hisobotining tuzilishi. Auditorlik hisobotining kirish qismi. Auditorlik hisobotining tahliliy qismi. Auditorlik hisobotining yakuniy qismi. Auditorlik hisoboti uchun javobgarlik. Auditorlik xulosasining tuzilishi. Auditorlik xulosasida adresat. Auditorlik xulosasining kirish qismi. Auditorlik xulosasining qayd etish qismi. Auditorlik xulosasining yakuniy qismi. Auditorlik xulosasining sanasi. Auditorlik xulosalarining turlari. Ijobiy auditorlik xulosasi. Salbiy auditorlik xulosasi. Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish. Auditorlik xulosasi uchun javobgarlik.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A7, A8, Q18, Q22, Q25, Q34, Q35]

## 3. Amaliy mashg’ulot darslari

### 1-mavzu. Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi

Iqtisodiy tahlilni fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy tahlilning ishlab chiqarishni jadallashtirish hamda xo’jalik hisobini mustahkamlash,

iqtisodiy tejamkorlikni amalga oshirishda hamda korxonala, konsernlar, birlashmalar va vazirliklarni ish sifatini yaxshilashdagi ahamiyati. Iqtisodiy tahlil qilish – dialektikaning muhim xususiyatidir. Hodisa va jarayonlarni har tomonlama o’zaro bog’liq ravishda o’rganish va ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash tahlilning asosiy belgisidir. Tahlil (analiz) va umumiylik (sintez) iqtisodiy hodisa va jarayonlarni batafsil o’rganishning asosiy yo’li ekanligi. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari: haqqoniylik va to’g’rilik – tahlilning turli iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o’rganishdagi asosiy maqsadidir. Ilmiy yondoshish, kompleks va sistemali o’rganishlik, iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari ekanligi.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A4, A6, A9, A11, A15, A16, Q19, Q27]

**2-mavzu. Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni**

Korxonalar faoliyatini atroflicha va keng o’rganish iqtisodiy tahlilning asosiy mohiyatidir. Hodisa va jarayonlarni o’rganishdan maqsad, natijaviy ko’rsatkichlarni o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni, sabab-oqibatlarini va ularning ta’sirini aniqlash.

Asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlarni shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy va qo’shimcha omillarni o’rganish va aniqlash. Korxonalar xo’jalik faoliyatini ko’rsatkichlari: texnika, texnologiya, ishlib chiqarishni tashkil etish, mehnatni tashkil etish, iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish jarayonlarini ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari, tabiiy sharoitlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va hokazolar. Iqtisodiy tahlil predmeti. Korxonalar, birlashmalar, konsernlar va vazirliklar xo’jalik faoliyatini tahlil qilish vazifalari. Mahsulot ishlab chiqarish va ularni xaridorlarga etkazib berish shartnomasini bajarishga korxonalarning imkoniyati etarliligi, mehnat resurslari, moddiy resurslar va asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanganligini o’rganish, bozor iqtisodiyoti raqobatlariga chidamli moliyaviy barqarorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning muhim vazifasidir.

Iqtisodiy tahlilning yo’l qo’yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, korxonaning kelgusida yanada samarali ishlashi uchun takliflar berish vazifalariga tushuncha. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining iqtisodiy fanlar majmuasida tutgan o’rni. Uning iqtisodiy nazariya, tarmoq iqtisodiyoti, moliya va kredit, buxgalteriya hisobi, statistika, ishlab chiqarishni va boshqarishni tashkil etish, matematika, kibernetika, sosiologiya, huquq, texnologiya, audit, hisoblash texnikasi va boshqa fanlar bilan o’zaro uzviy bog’liqligi. Rivojlangan davlatlardagi iqtisodiy tahlil tajribalaridan foydalanishning hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi zarurligi.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A1, A4, A9, A11, Q19, Q27, Q28, Q31, Q32]

**3-mavzu. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo’llaniladigan an’anaviy usullar**

Iqtisodiy tahlil metodi ta’rifi va uning xususiyatlariga atroflicha sistemali yondoshish, iqtisodiy, social va ekologik muammolarni birgalikda qo’shib o’rganishlik tahlil metodining asosiy tamoyillari. Dialektik yondashish, iqtisodiy ko’rsatkichlar tizimidan foydalanib, ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va har birini

ta'sir doirasini ko'rsatish – iqtisodiy tahlil uslubiyatini muhim xususiyatidir. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari va ularni tavsiflash. Taqqoslash usuli va uning qo'llanishi. Taqqoslama (ichki xo'jalik, xo'jaliklararo) tahlil korxonalardagi mavjud ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash usuli. Xo'jalik omillarini turli xususiyatlariga qarab guruhlash usuli. Rezervlarni tavsiflash, ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda "tor joy" va etakchi bo'g'inlarini aniqlash. O'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash usuli va ularning mohiyati. Ko'rsatkichlarni guruhlash va uning ahamiyati. Balansli bog'lanish usulini tahlilda qo'llanishi. Zanjirli almashtirish usuli va uni mohiyati. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda dinamik qatorlarni qo'llash usuli. Bartaraf etish usulini iqtisodiy tahlilda qo'llash tartibi. Ko'rsatkichlarni o'rganishda belgilarga ajratish va tartiblashtitish usullarini qo'llashning xususiyatlarini.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[Q19, Q20, Q27, Q28, Q31, Q33, Q35]

## 4-mavzu. Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilni boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlilga ajratishning zarurligi. Boshqaruv tahlili korxonalarning boshqarishning muhim vositasi ekanligi. Tijorat siri va boshqaruv tahlili. Boshqaruv tahlilining mazmuni, vazifalari va manbalari. Moliyaviy tahlil va uning korxonalar faoliyatiga baho berishdagi ahamiyati, mazmuni, tashkil qilinishi, vazifalari va manbalari. Xo'jalik faoliyatining joriy tahlili. Joriy tahlilning mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Korxonalar va birlashmalarning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni joriy tahlil qilishning usullari. Tezkor (operativ) tahlil. Tezkor tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni tezkor tahlil qilishning usullari. Istiqbolli tahlil. Istiqbolli tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Istiqbolli rejalarini tuzish chog'ida istiqbolli tahlilni tashkil qilish xususiyatlari va usullari. Xo'jaliklararo qiyosiy tahlil. Qiyosiy tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Xo'jaliklararo qiyosiy tahlilning turlari. Korxonalar, birlashmalar ko'rsatkichlarini taqqoslashning asosiy shartlari. Qiyosiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari. Texnik-iqtisodiy, ijtimoiy–iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy tahlil turlariga tushuncha. Texnik-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari va ularning kompleks iqtisodiy tahlil tizimida tutgan o'rni. Funksional qiymat tahlili. Funksional qiymat tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Funksional qiymat tahlilning tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanishdagi asosiy shartlari. Funksional qiymat tahlilning tashkil etilishi. Funksional qiymat tahlilning korxonalarni loyihalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va qayta uskunalash bosqichlarida o'tkazish xususiyatlari.

Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma'lumotlar tizimi. Iqtisodiy ma'lumotlarning turlari va ularni tashkil qilish tamoyillari: haqqoniylik, umumiy bog'liqlik, tezkorlik, tejamkorlik va keraklilik. Hisob, hisobot va boshqa ma'lumotlar tizimini qo'yilgan talabga javob berishi. Iqtisodiy tahlilda ma'lumotlar manbaini hisob va hisobdan tashqari ma'lumotlarga bo'linishi. Hisob, hisobot va reja ma'lumotlarini yig'ish va

bir tizimga qo’yish. Tahliliy jadvallar tuzish tartiblari. Korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish: moliyaviy tahlil va boshqaruv tahlili. Korxonaning moliyaviy natijalari va holati to’g’risida axborotdan foydalanuvchilarning turli toifalari: menejerlar, kreditorlar, investorlar, mahsulot etqazib beruvchilar va boshqalarning ko’zlagan asosiy maqsadi. Boshqaruv tahlilini o’tkazuvchilar: korxona rahbariyati, hisobchilar, iqtisodchilar, muhandislar, mutaxassislar va boshqalarning bajaradigan funksiyalari. Korxonalarda iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilishni rejalashtirish: ko’zlangan maqsadi va vazifalari, mazmuni, bosqichlari bo’yicha uyushtirish. Funksiyasiga qarab (korxonalar, birlashmalar, moliya, soliq, statistika, auditorlik firmalari va boshqalar), maqsadga qarab (to’liq va tematik), tahlil qilanayotgan bo’g’inlarga qarab (korxona, sex, brigada, bo’g’in, ish uchastkalari va boshqalar), o’tkazish vaqtiga qarab (oldindan,joriy, navbatdagi va boshqalar).

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari. Korxona xo’jalik faoliyatini tahlil qilishda korxonaning texnikaviy va iqtisodiy xizmat ko’rsatish bo’limlari bo’yicha vazifalarini o’zaro taqsimlanishi. Tahlil uchun zarur ma’lumotlar to’plash; kerakli ma’lumotlarni hajmini aniqlash, to’plash, ularni to’g’ri va to’liqligini tekshirish, qayta ishlash, tahlilga moslashtirish. Ma’lumotlarni tahlil qilish. Ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash. Iqtisodiy tahlilning natijalarini rasmiylashtirish. Tahlil natijasiga xulosa va yakun tuzish, aniqlangan rezervlardan foydalanish bo’yicha takliflar keltirish.Iqtisodiy tahlil natijalari bo’yicha qaror qabul qilinishi va uning bajarilishini nazorat qilish.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A9, A15, A16, Q17, Q19, Q21, Q27, Q32, Q35]

### 5-mavzu. Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko’rsatkichlarni tahlil qilish usullari

Mahsulotni (ish, xizmat) ishlab chiqarish va uni sotishni ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari. Korxonalarning xo’jalik faoliyatini ifodalovchi miqdoriy ko’rsatkichlar: yalpi, tovar, sotilgan va sof mahsulot to’g’risida tushuncha hamda ularning mohiyati. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifati, raqobatbardoshligi, assortimenti (xilma-xilligi) va mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish ko’rsatkichlarining mohiyati hamda ularni sotish hajmiga ta’siri. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta’sir qiluvchi: mehnat, mehnat vositalari va mehnat buyumlari omillarini turkumlash tamoyillari. Mehnat omillaridan samarali foydalanish ko’rsatkichlari. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha va uning mohiyati. Mehnat unumdorligi ko’rsatkichlarini aniqlash tartibi. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko’rsatkichlar: fond samarasi, fond sig’imi, asbob-uskunalardan foydalanish koeffisienti to’g’risida tushuncha va ularning mohiyati. Mehnat buyumlari omillaridan samarali foydalanish ko’rsatkichlari (material samarasi, material sig’imi) haqida tushuncha va ularning mohiyati. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha va uni pasaytirishni ahamiyati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlaririni aniqlash kompleks iqtisodiy tahlil tizimini asosiy shartidir. Ishlab chiqarish samarodorligini oshirish rezervlarini turkumlarga ajratish.

Qo’llaniladigan ta`lim texnologiyalari**:** *aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, paradokslar usuli.*

[A9, A15, A16, Q17, Q19, Q21, Q27, Q32, Q35]

## 6-mavzu. Korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish usullari

Korxonalar moliyaviy holatini baholashda moliyaviy koeffisientlar tizimining ahamiyati. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarni hisob-kitob qilish uslubiyati. Koeffisientlar: mustaqillik, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy qaramlik. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi qo’shimcha koeffisientlar. Balans va aktivlar likvidligi to’g’risida tushuncha. Balans likvidligini tahlil qilishning ahamiyati. Likvidlilik darajasi bo’yicha balans aktivini guruhlashtirish. To’lanish muddati darajasi bo’yicha balans passivi moddalarini guruhlashtirish. Korxona to’lov qobiliyatiga umumiy baho berish. To’lovga qobillikni asosiy ko’rsatkichlarini tahlil qilish usullari. Balansning ishchanlik faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi va ularni tahlili. Debitorlik va kreditorlik karzlari holatining tahlili. Muddatli o’tgan va muddati etib kelingan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatining tahlili. Korxona aylanma mablag’larni aylanishning tahlili. Aylanma mablag’larni aylanish kunini o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) korxonalarning ish faoliyatidagi eng asosiy ko’rsatkichdir. Moliyaviy natijalar tahlilning asosiy vazifalari.

